Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI PIRLS DASTURIGA TAYYORLASHDA MATNLAR USTIDA ISHLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Buranova Gulnora Djurabayevna
Sirdaryo viloyati Mirzaobod tuman
2-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.
Magistr
Tel: +998 99-461-46-83
gulnoraboronova718@gmail.com

Annotatsiya
Maqolada boshlang'ich sinflarga ta'lim berishda o'qituvchi amal qilishi zarur bo'lgan mezonlar va ularning ahamiyati hamda xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda interfaol metodlarning o`rni haqida so`z boradi.
Kalit so'zlar. O'quv jarayoni, boshlang'ich sinf, ta'lim,interfaol metodlar, ijodiy yondoshuv.

В статье рассматриваются критерии, которым должен руководствоваться учитель при обучении в начальной школе, и их важность, а также роль интерактивных методов при подготовке к международным программам оценивания.
Ключевые слова. Образовательный процесс, начальная школа, применение информационно-коммуникационных технологий, младший школьный возраст, современные игры, роль интерактивных методов в подготовке международных программ оценивания

The article examines the criteria that a teacher should be guided by when teaching in primary school, and their importance, as well as the role of interactive methods in preparation for international assessment programs.
Key words. The educational process of the primary school, use of information and communication technologies, younger school age, modern games, The role of interactive methods in the preparation of international assessment programs

Bugungi kunda mamlakatimizda bo`layotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ta'lim tarbiya sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar "Milliy dastur"imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar hozirgi kun o`qituvchisini yanada ko`proq mehnat qilishga, izlanishga da'vat etmoqda. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

Sog'lom bolani voyaga yetkazishda ta'lim-tarbiyaning o'rni va ta'sirini yanada kuchaytirish lozim. Shu jumladan, boshlang'ich ta'limning sifatini oshirish, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarni takomillashtirilishi, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilayotganligi bugungi davr talabidir. PIRLS tadqiqotlari doirasida turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlarning 1-sinf bituvchilarining o'qish sifati va o'qilgan matnni tushunish darajasi o'rganiladi.

Xo`sh o`qish savodxonligi nima? O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. O`quvchilarni o`qish savodxonligini oshirishimiz uchun ularni yuqori cho`qqilarga chiqishi uchun biz o`qituvchilardan juda katta ma'suliyat talab qilinmoqda. Darslarimizni o`tish jarayonida turli innovatsion usullardan hamda interfaol metodlardan foydalanishimiz ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o`quvchilarning o`qish motivlarini o`stiradi. Shu bilan birga bugungi kunda eng dolzarb bo`lgan xalqaro baholash dasturlariga ham javob bera oladi. Chunki

darslarda har xil pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarda fanga qiziqish uyg‘otib ularning faolligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Natijada o‘zlashtirish darajasi ortib boradi.

Men o`z darslarimni qiziqarli turli xil test savollari, qo`shimcha topshiriqlar va turli metodlardan foydalangan holatda o`tishga harakat qilaman. So`zimi isboti sifatida 1-sinfda Kavsar Turdiyeva "Yo’qolgan ko’zoynak" mavzusi asosida quyidagi topshiriqlarni tayyorladim.

Yo’qolgan ko’zoynak (Kavsar Turdiyeva)



Gulshoda uch yoshdan oshdi. Uydagi hamma narsaga qiziqib quloq soladi. Mana, hozir ham buvisi ko'zoynagini topa olmayapti.

---Buvingga ko'zoynagini qidirishib yubor! — dedi oyisi va o‘zi ham qidirishga tushdi.

Dadasi esa kim ko‘zoynakni topsa, shokolad sovg'a qilishini aytdi. Gulshoda stoldagi gazetani olib qarasa — ko'zoynak... U yugurganicha dadasining yoniga bordi.Men topdim! Topdim!

— Qoyil! — dedi oyisi. Buvisi ham rosa xursand bo‘ldi. Dadasi esa:

— Bu topag'on qizimga, — deb shokolad uzatdi.

Hamma o‘z ishi bilan band bo'ldi. Oyisi ovqat qildi. Buvisi ko‘rpa qavidi. Dadasi hovlida yer chopdi. Tushlikda birgalashib ovqatlanishdi. Keyin hamma turib yana o‘z ishini davom ettirishga kirishdi. ---Yana ko'zoynagim yo‘qolib qolibdi, — birdan buvisining xafa ovozi eshitildi.

---Qayerga qo'ygan edingiz? — so'radi oyisi kelib.

Gulshoda pardaning ortidan mo'ralab:---Mana, buvimning ko'zoynagini topib oldim. Endi shokolad berasizmi? — dedi.Lekin bu safar oyisi unga xo'mrayib qaradi va qo'lidagi ko‘zoynakni olib qo`ydi.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1.Gulshoda kimning ko’zoynagini qidirishga tushdi?
A.bobosini B.buvisining S.onasini D.dadasini
2.Dadasi ko’zoynakni topganga nima sovg’a qilaman debdi?
A.kitob B.shokolad S. konfet D.o’yinchoq
3.Ko’zoynakni kim topib oldi?
A.Gulshoda B.Dilnoza S.Shoxruh D.Nigora
4. Oila a’zolari ishlarini qilib bo’lib birgalashib nima qilishdi?
A.nonushta qilishdi B.tushlik qilishdi
S.kechki ovqat tanavvul qildilar D.ovqatlanishdi
5.Matnga oid maqol yozing.
Maqol: “To'g'ri so'zlash insonni yaxshilikka eltadi.”
6.Matndan qanday xulosa chiqardingiz:_____
_____

Testlarga javobni izlashda, savol strukturasiga ahamiyat berish juda muhim. Tajribali kitobxon savolning o'zidan javobni topa olishi mumkin bo'ladi.

Tajribasiz kitobxon esa bu borada qiynaladi. Har bir o'qilgan asarni nafaqat o'qib balki, uni miyada chuqur “hazm qilish” va baholay olish yaxshi samara beradi. Bolada tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda kattalar tomonidan oilada, maktabda uning ham shaxs sifatida o'z fikri borligini inobatga olish juda muhim. Xato fikrlarini ota-onalar, o'qituvchilar bosiqlik bilan tinglab tushuntirishlari katta yoshlilardan tolerantlikni, sabrni talab qiladi. Ba'zan esa hayotning o'zi ham xatolarimizni tan olishga majbur etadi.

Qo’llanilgan adabiyotlar:

1. ”O’quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo’ljallanagan axborotnoma.” 2021-№3
2. 1-sinf. O’qish darslik 2019
3. www. ziyonet. uz.
4. www. kitobxon. com